

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAYFULLAYEVA NOZIMA BAXODIROVNA

IXTISOSLASHTIRILGAN BOSHLANG‘ICH SINFLARDA

MATEMATIKA O‘QITISHNI TASHKIL ETISH

(O‘quv qo‘llanma)

BUXORO-2022

Ushbu qo'llanma 5111700 - Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan bakalavr va magistrantlar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, pedagogika kollejlarining shu yo'nalishda tahsil olayotgan talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda ixtisoslashtirilgan sinflarda matematika o'qitishni tashkil etish metodikasi, matematikaga ixtisoslashgan sinflarda o'qitishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish maqsadida o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalar, o'quvchilar bilimini tekshirish va qiziqarli mashg'ulotlar tashkil etishga oid tavsiyalar,.....kabilar yoritilgan.

Mas'ul muharrir: p.f.n., dotsent Qosimov Fayzullo Muxammedovich

Taqrizchilar:

M.J.SAIDOVA, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Z.D.HASANOVA, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur o'quv qo'llanma Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan ()

So'z boshi

Zamonaviy ta'limda ta'lim muassasalardagi o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zahirida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirish muhimligi sababli u davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlarda o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish sohasida qator tadbirlar boshlab qo'yilgan. Xususan, boshlang'ich ta'limda o'qitishga alohida e'tibor qaratilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamon talablari asosida malakali kadr etib tayyorlash bugungi kunning kechiktirib bo'lmas muammolaridan biri sanaladi. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur.....Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdorimiz.

Joriy yilda matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Shuningdek, ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag'larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish kerak." Darhaqiqat, hozirgi zamon umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari fan asoslari bilan qurollangan, dunyoqarashi keng,

pedagogika, psixologiya va fanlarni o'qitish metodikasini chuqur o'zlashtirgan, zamonaviy texnologiyalardan xabardor shaxs bo'lishi kerak.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim jarayoni juda murakkab jarayondir. Bu jarayonni hozirgi kunda davr talabi asosida tashkil etish, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan katta mas'uliyat, bilim, mahoratni talab etadi.

1-4-sinflardagi matematika darslari umumiy o'rta ta'lim maktab matematika fani uchun asos, poydevor ekan, bu sinflarda matematika o'qitilishini eng zamonaviy talablar darajasiga ko'tarmoq zamon talabidir. Chunki, bolalarga keyinchalik matematika va boshqa fanlar uchun zarur bo'lgan elementar, tushunchalar shu sinflarda singdiriladi.

Mazkur o'quv qo'llanmadan kuzatilgan maqsad yosh o'qituvchilarga matematika o'qitishda sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazib, matematika o'qitishning samarasini oshirish va o'quvchilarni sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali bilim, ko'nima va malakalarini orttirib borishlariga yordam berishdir.

Qo'llanma boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavr va magistr talabalari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.